

**ESSE YOZISHDA "TEZIS" VA "ARGUMENT"
TUSHUNCHALARINING AHAMIYATI**

*Rabbimova Xamida Yoqubovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d dots. I.Yoqubov
minushrabbimova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada essening muhim elementlari hisoblangan tezis va argument haqida ma'lumotlar beriladi. Ularning matn tarkibidagi ahamiyati, turlari, tabiatи to'g'risida mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, esse mavzulari doirasida tezis va argumentlarga oid namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar. Esse, tezis, argument, dalil, fikr, hayotiy misol, tur, vosita, tushuncha, muhokama, ijobiy, salbiy, mantiqiy argument.

MAKALE YAZIMDA "TEZ" VE "ARGÜT" KAVRAMLARIN ÖNEMİ

*Rabbimova Hamida Yakubovna,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi
Bilimsel danışman: Doç. Doktora I.Yakubov*

Özet. Bu makalede, makalenin önemli unsurları olarak kabul edilen tez ve argüman hakkında bilgi verilmektedir. Metnin önemi, türleri ve mahiyeti hakkında görüşler ifade edilir. Ayrıca makale konularının bir parçası olarak tez ve tartışma örneklerine yer verilmiştir.

Anahtar kelimeler. Deneme, tez, argüman, argüman, görüş, gerçek hayatdan örnek, tür, araç, kavram, tartışma, olumlu, olumsuz, mantıksal argüman.

**«ТЕЗИС» И «АРГУМЕНТ» В НАПИСАНИИ ЭССЕ
ЗНАЧЕНИЕ ПОНЯТИЙ**

*Раббимова Хамида Якубовна,
магистрант Узбекско-Финского педагогического института
Научный руководитель: доц. доктор философии И.Якубов*

Аннотация. В данной статье представлена информация о тезисе и аргументации, которые считаются важными элементами эссе. Высказываются мнения об их значении, видах и характере текста. Также в рамках тем эссе приводятся примеры тезисов и аргументов.

Ключевые слова. Эссе, тезис, аргумент, аргумент, мнение, пример из реальной жизни, тип, инструмент, концепция, дискуссия, позитив, негатив, логический аргумент.

**"THESIS" AND "ARGUMENT" IN ESSAY WRITING
THE SIGNIFICANCE OF THE CONCEPTS**

*Rabbimova Hamida Yakubovna,
master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Scientific supervisor: associate professor, doctor of philosophy I.Yakubov*

Abstract. This article provides information about the thesis and argument, which are considered important elements of an essay. It discusses their importance in the text, their types, and

their nature. It also provides examples of theses and arguments within the framework of essay topics.

Keywords. Essay, thesis, argument, proof, idea, real-life example, type, tool, concept, discussion, positive, negative, logical argument.

Bugungi kun ta'lismida esse yozish nafaqat o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, balki ularning tanqidiy fikrlashini, muammoga shaxsiy yondashuvini shakllantirish vositasi sifatida muhim o'rinni egallaydi. Har bir muvaffaqiyatlari esse zamirida aniq ifodalangan tezis hamda uni isbotlaydigan ishonchli argumentlar yotadi. Shu sabab, esse yozishda tezis va argumentning ahamiyati beqiyosdir. Chunki ular matnning mantiqiy tuzilishini shakllantiradi va o'quvchining fikrlarini asosli ifodalashiga yordam beradi.

Eng avvalo, tezis va argument tushunchalariga izchil to'xtalish bu borada ahamiyatlidir. Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan iborat bo'ladi. [2, 19 b.]. Shunday ekan, tezis essening asosiy negizi, yozuvchining aniq bir mavzuga bo'lgan munosabatini shakllantirgan fikr va g'oyalar jamlanmasi deyish mumkin. Asosan, esse boshida bayon qilinadi, chunki matn oxirigacha mazmun shu tezis atrofida jamlanadi. Tezis qanchalik mukammal va aniq bo'lsa, uni asoslaydigan ma'lumotlar, dalillar, misollar ham shunchalik kuchli bo'lishi kerak. Negaki bu o'quvchiga matn mazmunini yetkazishga yordam beradi, essening o'qimishliligini oshiradi, o'z navbatida, faktlar bilan ishslashni o'rgatadi. Eng yaxshi tezis bahs, munozara va muhokamaga boy tezis hisoblanadi. Uning bir qancha ko'rinishlari bor. Bular:

1. Oddiy, ya'ni so'z bilan ifodalangan tezis.
2. Murakkab tezis.
3. Savolga javob shaklidagi tezis.
4. Qarama-qarshi fikrni inkor etuvchi tezis [3, 72 b.]

1. *Oddiy tezis.* Ushbu tezis bir asosiy fikrdan iborat bo'ladi. Odatda, bitta gap bilan ifodalananadi. Misol: *Kitob inson hayotini qutqaruvchi vosita.* Bu yerda bitta aniq fikr bor va essening tub maqsadi shu g'oyani ochib berishga qaratilyapti.

2. *Murakkab tezis.* Bu ikki va undan ortiq fikrdan tashkil topadi. Bu kabi tezislari muammoli vaziyatlarni ochib beradigan mavzular uchun samarali hisoblanadi. Misol: *Kompyuter o'yinlari insonlarni zavqlantiradi, ammo ko'p vaqt foydalanilsa, zararli oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.* Bu turdag'i tezisda essening ikki jihatni yoritiladi: ijobjiy va salbiy tomon. O'quvchi bularning har ikkisiga ham o'z fikrini bildirishi, mavzuni ochib berishi kerak. Bu uchun asosli dalillarni topish muhim ahamiyat etadi.

3. *Savolga javob shaklidagi tezis.* Savol ko'rinishida keltirilgan mavzularga javob shaklida tezis tuziladi. Misol: *Nima uchun ertalab badantarbiya qilish kerak? degan savolga tezis: Sport salomatlikni mustahkamlaydi va organizmni kuchaytiradi.* Bu turdag'i tezislarga dalillar keltirish, fikrlarni ifodalash oson. Shu sababli, bunday tezislari o'quvchiga muammo tug'dirmaydi.

4. *Qarama-qarshi fikrni inkor etuvchi tezis.* Bu shaklda mualif esse mavzusi yoritilgan fikrga qarshi chiqadi. Hamda o'z munosabatini, qarshi chiqish sabablarini bildirib o'tadi. Misol: *Jamiyatda ko'plab insonlar internetni juda zararli deb hisoblaydi, biroq undan to'g'ri foydalanilsa bilim manbayi bo'la oladi.* Bular bahs hamda munozaraga boy mavzular bo'lib, o'z navbatida, kuchli va ishonchli argumentlarni talab qiladi.

Yuqorida tezislarni dalillash uchun har qanday esse argumentlarga ehtiyoj sezadi. Argument nima? Dastlab argument haqida tushunchalarni bayon qilaylik.

Argument (lotinchcha argumentum) – 1) biron bir mulohaza (konsepsiya, nazariya)ning haqiqatligini (rostligini) tasdiqlash uchun keltiriladigan mulohaza (yoki mulohazalar majmuyi) dalil [5, 15 b.]. Argumentlar tezisni tasdiqlovchi dalillar hamda misollardir. Ular mavzu doirasida doimo bir-biriga mantiqan bog'langan bo'lishi kerak. Kuchli argumentlar tezisni to'ldiradi, har bir fikrni 2

va undan ortiq dalillar bilan boyitadi, tezisning ishonchligini ta'minlaydi. Esseda argumentning vazifasi o'quvchini muallifning fikriga ishontirishdir. Bunda u turli ko'rinishlardan foydalanadi. Ya'ni argumentning maxsus ko'rinishlari bo'lib, ularning barchasi matn mazmunida tezisga bog'langan bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Fakt (aniq dalilga asoslangan argument).
2. Hayotiy misol.
3. Tarixiy misol.
4. Mantiqiy asoslangan fikr.

1. *Fakt (aniq dalilga asoslangan argument)*. Ushbu argumentlar ko'proq ilmiy tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar, tarixiy voqeа, hodisa yoki haqiqatga asoslangan raqamlarga tayanadi. Namuna: (*Kitob mavzusida*) *Statistik ma'lumotlarga qaraganda, inson bir yilda o'rtacha 12 ta kitob o'qisa normal deb qabul qilinar ekan*.

2. *Hayotiy misol*. Bular bo'lib o'tgan voqealar asosida namoyon bo'ladi. Bularga:

- Shaxsiy mushohadalar
- O'zining va atrofdagilarning hayotidan lavhalar
- Kunimizda sodir bo'layotgan real voqealarni misol qilib keltirish mumkin.

Namuna: (*Dori vositalarining reklamatarda berilishi*) *Shenjen klinikasi tomonidan tavsiya qilingan Mo'myo dorisining insonlarga salbiy ta'sirini qo'shnimiz Xolida opa misolida yaqqol ko'rish mumkin.*

3. *Tarixiy misol*. Tarixdagи mashhur shaxslar, bo'lib o'tgan hodisalar yoki vaziyatlar asosida fikrni mustahkamlash. Misol: (*Kitob mavzusi*) *Alisher Navoiy yoshligidan kitob o'qishga qiziqqan, bu esa uning ma'naviy yetuklikka erishishiga xizmat qilgan*.

4. *Mantiqiy asoslangan fikr*. O'zaro sabab-oqibatga tayangan fikrlar, ma'lum bir xulosaga yo'naltiruvchi mantiqiy izchillikni vujudga keltiradigan argumentlarni o'z ichiga oladi. Misol: *Agar yoshlar darslarni o'z vaqtida qilsa va ko'p kitob o'qisa, ularning fikrlashi o'sadi, bu esa ularga vaqtini to'g'ri taqsimlashni o'rgatadi*.

Shunday qilib, tezis va argumentlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, essening mantiqiy tuzilishini ta'minlaydi va muallifning fikrlarini aniq yetkazishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Basic Essay and Paragraph Format:
2. Fayzixodjaeva D.I. Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi, o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent. 2024, 76 b.
3. Nəhmətova Könül Aydın Yazı işinin təşkili metodikası, – Bakı. 2020, 98 b.
4. Методические рекомендации по написанию эссе. Государственное автономное образовательное учреждение среднего образования Республики Коми, «Ухтинский медицинский колледж». – Ухта, 2013.
5. Ўзбекистан миллый энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистан миллый энциклопедияси, 2000. – 879 б.
6. https://www.uvu.edu/writingcenter/docs/handouts/writing_process/basicses_sayfo_rmat.pdf